

## GENDER VA FUQAROLIK TENGLIGI: YANGI KONSTITUTSIYAVIY YONDASHUV

**Dilnora Daminova**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Xalqaro huquq fakulteti 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida belgilangan fuqarolarning teng huquqliligi tamoyili hamda 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi 58-moddada qayd etilgan gender tengligi masalalari yoritiladi. Maqolada millati, irqi, tili, dini, jinsi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, har bir fuqaroning teng huquqlari ta’minlanishi zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, ishga joylashish, ta’lim olish va jamiyatdagi faol ishtirokda fuqarolarning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi lozimligi haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Konstitutsiya, tenglik, huquq, gender, fuqarolik, diskriminatsiya, O‘zbekiston.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются принципы равноправия граждан, закреплённые в статье 19 Конституции Республики Узбекистан, а также вопросы гендерного равенства, изложенные в новой редакции статьи 58, принятой в 2023 году. Обосновывается необходимость обеспечения равных прав каждого гражданина независимо от его национальности, расы, языка, религии, пола или социального происхождения. Также обсуждается важность равных возможностей при трудоустройстве, получении образования и активном участии в жизни общества.*

**Ключевые слова:** *Конституция, равенство, право, гендер, гражданство, дискриминация, Узбекистан.*

**Annotation:** *This article explores the principle of equal rights for citizens as stipulated in Article 19 of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, as well as gender equality issues outlined in the newly revised Article 58 adopted in 2023. The article substantiates the necessity of ensuring equal rights for every citizen regardless of nationality, race, language, religion, gender, or social origin. It also discusses the importance of equal opportunities in employment, education, and active participation in society.*

**Keywords:** *Constitution, equality, rights, gender, citizenship, discrimination, Uzbekistan.*

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklari eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Fuqarolarning teng huquqliligi esa davlatning konstitutsiyaviy asoslaridan biri bo‘lib, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va adolatning kafolatidir. Ushbu maqolada aynan shu prinsipning mazmun-mohiyati, amaliy ahamiyati va zamonaviy yondashuvlar asosida gender tengligi bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilinadi. Asosiy qism O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini eng oliy qadriyat sifatida belgilaydi. Ayniqsa, har bir fuqaroning huquq va erkinliklari tengligi davlat siyosatining poydevori bo‘lib xizmat qiladi. 19-moddada bu tamoyil aniq ifodalangan: shaxsning millati, tili, dini, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi yoki boshqa belgilaridan qat’i nazar, unga teng huquq va imkoniyatlar taqdim etilishi zarur. Bu norma, bir qarashda, oddiy va tushunarli ko‘rinsa-da, uning amalda to‘liq ro‘yobga chiqishi jamiyat barqarorligi va adolatli boshqaruv asosidir. Afsuski, real hayotda hali-hanuz ayrim fuqarolar o‘z huquqlarining buzilishini boshdan kechirmoqda. Til yoki diniy e’tiqodi, jinsi sababli ishga olinmaslik, ayollarni rahbarlik lavozimlaridan chetlashtirish, nogironligi bor insonlarga zarur sharoitlar yaratilmasligi kabi holatlar mavjud. Bu esa, nafaqat Konstitutsiyaga, balki xalqaro inson huquqlari me’yorlariga ham ziddir. 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilindi va unda jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo‘lgan qator yangilanishlar kiritildi. Jumladan, 58-modda davlat tomonidan gender tengligi ta’minlanishini aniq belgilab berdi. Bu degani, davlat ayollar va erkaklar o‘rtasida nafaqat qonuniy tenglikni, balki haqiqiy imkoniyatlar tengligini kafolatlaydi. Endilikda, ayollarni faqat uy bekasi sifatida emas, balki faol ijtimoiy qatnashuvchi, siyosiy lider, olim yoki tadbirkor sifatida tasavvur qilish tobora odatiy holga aylanmoqda. Tenglik faqat ayollar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlar bilan cheklanmaydi. Har bir fuqaroning o‘ziga xosligi, shaxsiy tanlovi va kelib chiqishidan qat’i nazar, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi — demokratik jamiyat mezonlaridan biridir. Bu tenglik zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida doimiy targ‘ib qilinishi, yosh avlod ongiga chuqur singdirilishi zarur. Konstitutsiyaviy normalar real hayotda ishlashi uchun qonunlar bilan bir qatorda fuqarolarning huquqiy madaniyati, ijtimoiy ong va jamiyatning tolerantligi katta

ahamiyatga ega. Tenglik faqat davlat tomonidan kafolatlangan huquq emas, bu — jamiyatning har bir a’zosi tomonidan hurmat qilinadigan qadriyat bo‘lishi kerak. Xulosa: O‘zbekiston Konstitutsiyasida belgilangan fuqarolarning teng huquqliligi tamoyili nafaqat qonuniy me’yor, balki ijtimoiy barqarorlik, taraqqiyot va milliy birdamlikning asosi hisoblanadi. Aynan shu tamoyil asosida adolatli jamiyat, kuchli fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan demokratik davlat barpo etilishi mumkin. Har bir fuqaro bu tenglikning muhimligini anglab yetishi va unga amal qilishi jamiyat ravnaqining asosiy omilidir.

### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir) – 2023-yil 30-aprel.
2. O‘zbekiston Respublikasi Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) – <https://ombudsman.uz>
3. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Gender tengligi va ayollar huquqlari bo‘yicha qonunchilik asoslari. – Toshkent: Adliya vazirligi, 2023.
5. Universal inson huquqlari deklaratsiyasi. BMT, 1948-yil
6. Rashidova S. “O‘zbekiston Konstitutsiyasi va inson huquqlari”. – Toshkent, 2021.
7. “Huquq” gazetasi materiallari, 2023–2024-yillar. Ilovalar:
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasi matni: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar ularning millati, irqi, jinsi, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, teng huquqlidirlar. Har qanday kamsitishga yo‘l qo‘yilmaydi.”
9. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi 58-modda: “Davlat erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi. Gender tengligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.”
10. Gender tengligi bo‘yicha xalqaro qonunchilikdan iqtibos (CEDAW): “Ayollarga erkaklar bilan teng ravishda barcha sohalarda ishtirok etish va imkoniyatlardan foydalanish huquqi ta’minlanishi kerak.” – CEDAW, BMT, 1979.